

O‘zbekiston
Metama'lumot
Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqilgan sana: 07.06.2022

Oxirgi yangilangan sana: 07.06.2022

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul, shuningdek ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;

- statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to‘g‘risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiyligini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda Markaziy apparatda 12 nafar va statistikaning hududiy boshqarmalarining sanoat statistikasi bo'limlarining har birida 4-5 nafardan xodim tomonidan amalga oshiriladi.

Statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish uchun xodimlar soni etarli.

Barcha xodimlar iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasida oliy ma'lumotga ega bo'lib, har 2 yilda kamida bir marta Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida malaka oshirib boriladi.

Har bir ish joyi shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan, dasturiy ta'minot muntazam yangilanadi.

Berilayotgan moliyaviy mablag'lar sanoat statistikasi bo'yicha yillik statistika dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma‘lumotlarining sifati to‘g‘risida metama‘lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko‘rib chiqish hamda ular bo‘yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Unga ko‘ra, Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonun va statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko‘rsatilgan statistika dasturi Qo‘mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma‘lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan

taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo‘mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e‘lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma‘lumotlarni ularni e‘lon qilish vaqtidan oldin ko‘rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma‘lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo‘mita raisi, uning o‘rinbosarlari va mas‘ul xodimlar statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

1.2.3 Statistik ma‘lumotlarning atributlari (belgilari)

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Jamoatchilikka e‘lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma‘lumotlarning Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma‘lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o‘zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Yangi uslubiyatga o‘tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o‘zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo‘mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo‘mitasi o‘z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o‘zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko‘rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o‘zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me‘yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me‘yorlari bo‘yicha ko‘rsatmalar

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo‘mitasi xodimi individual ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichi sanoatning ma'lum bir davrdagi rivojlanish darajasini tavsiflaydi va sanoat ishlab chiqarish hajmini qiymat jihatidan tegishli aholi soniga bo'lish koeffitsienti sifatida hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichning o'tgan yilning shu davriga nisbatan foizlarda o'zgarishi tegishli davrdagi sanoat ishlab chiqarishining jismoniy hajmi indeksini shu davrdagi aholi o'sish sur'atiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalariga muvofiq, 2010 yildan boshlab aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni qiymat va o'tgan yilning shu davriga nisbatan foizlarda hisoblash amalga oshirilmoqda.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamroviga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahri kiradi.

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmiga sanoat faoliyati kiradi:

- a) yirik korxonalar;
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar;
- c) yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo'jaliklari tomonidan sotish uchun ham, o'z iste'moli uchun ham sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- d) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Hech qanday istisno yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Ko'rsatkich butun mamlakat va mintaqalar bo'yicha hisoblanadi.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Sanoat ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlarini baholash tovarlar va xizmatlarni qachon sotilganidan qat'i nazar, ishlab chiqarish vaqtidagi narxlarda baholashni o'z ichiga oladi.

O'tgan yilning shu davri uchun jismoniy hajm indeksini hisoblashda ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksidan foydalaniladi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Tranzaksiyalar va oqimlar 2008 yilgi SNA tavsiyalariga muvofiq hisoblash usuli bo'yicha hisobga olinadi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Yalpi ko'rsatkich sifatida sanoat ishlab chiqarishining tannarx hajmi aniqlanadi. Sanoat mahsulotining o'zgarishi og'irlik sifatida iqtisodiy faoliyatning yalpi qo'shilgan qiymatidan foydalangan holda hisoblanadi.

3. Aniqlilik va ishonchlilik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi 274-sonli "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq faoliyat yurituvchi kompleks va doimiy yangilanib turiladigan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

Korxonalarining registr tartib-qoidalari etarli darajada (shu jumladan yangi bo'linmalarni qo'shish, tugatilgan birliklarni yo'q qilish, qo'shilish va mulkchilikni o'zgartirish yozuvlarini yuritish). Ma'lumotlar yig'ish dasturi to'liq bo'lishini ta'minlash uchun birlamchi ma'lumotlar doimiy ravishda ko'rib chiqiladi. Hisobot shakllari o'zgaruvchan vaziyatlarni hisobga olgan holda vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash uchun axborot bazasi statistik hisobotning birlamchi statistik ma'lumotlari hisoblanadi:

- yiliga bir marta yirik korxonalar bo'yicha statistik hisobotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yagona hisobotlar asosida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi to'g'risidagi yangilangan ma'lumotlar shakllantiriladi;
- ishlab chiqarishning oylik hajmi yirik korxonalarining statistik hisobotlari ma'lumotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining telefon orqali so'rov usulidan foydalangan holda tanlab olingan so'rovnomalari, shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining tanlanma so'rovlari asosida hisoblanadi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Dastlabki ma'lumotlar buxgalteriya va bazaviy davrlarda aks ettirish vaqtiga to'g'ri keladi. Eng muhim sanoat guruhlarini doirasidagi faoliyat ko'lami etarli.

Ma'lumotlarni chiqarish sanasi: har oy - hisobot davridan keyin 10 ish kunidan kechiktirmay, yillik - hisobot davridan keyin 6 oydan oshmasligi kerak.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi yillik statistika dasturi bilan tartibga solinadi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 10-kuni shakllantirilib, amaldagi ma'lumotlar standartiga mos keladi. Yillik-hisobot davridan keyingi 6 oydan kechiktirmay.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Korxonalaridan olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, tuman va viloyat statistika boshqarmalari darajasida, Davlat statistika qo'mitasida majburiy nazorat va tekshirishdan o'tkaziladi. Agar ro'yxatga olish, tasniflash, nazorat qilishda xatolar aniqlansa, ma'lumotlar respondentlar bilan yana aniqlanishi kerak.

Birlamchi ma'lumotlar boshqa tegishli ma'lumotlar manbalari bilan solishtirish uchun tahlil qilinadi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Korxonalaridan olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, tuman va viloyat statistika boshqarmalari darajasida, Davlat statistika qo'mitasida majburiy nazorat va tekshirishdan o'tkaziladi. Agar ro'yxatga olish, tasniflash, nazorat qilishda xatolar aniqlansa, ma'lumotlar respondentlar bilan yana aniqlanishi kerak.

Birlamchi ma'lumotlar boshqa tegishli ma'lumotlar manbalari bilan solishtirish uchun tahlil qilinadi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash Yevrostat va OECD tavsiyalarini hisobga olgan holda, shuningdek, sanoat statistikasi bo'yicha 2008 yilgi xalqaro tavsiyalarga muvofiq amalga oshiriladi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Hisob-kitob va hisobot ma'lumotlarini muntazam ravishda solishtirish amalga oshiriladi. Joriy va yangilangan ma'lumotlar o'rtasidagi farq unchalik katta emas.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Asosiy oraliq ma'lumotlardagi mumkin bo'lgan tafovutlar tahlil qilinadi va ma'lumotlar nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun tuzatiladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Asosiy oraliq ma'lumotlardagi mumkin bo'lgan tafovutlar tahlil qilinadi va ma'lumotlar nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun tuzatiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki yillik ko'rsatkichlar hisobot davridan keyin 6 oydan kechiktirmay yillik hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

2016-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari milliy klassifikatoriga o'tish munosabati bilan 2010-yildan boshlab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik hajmlari qayta hisoblab chiqildi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash har oyda, yangilangan raqamlar - yillik hisobotlarga muvofiq amalga oshiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 10 ish kunida, yillik ko'rsatkichlar - hisobot davridan keyin 6 oydan kechiktirmay e'lon qilinadi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Tasdiqlangan va tarqatilgandan so'ng, statistik seriyalar qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun mavjud vaqt qatorlari 2010 yildan boshlab qayta hisoblab chiqildi.

Respublikada aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlarning vaqt qatorlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan foizda ham 2010 yildan boshlab qayta hisoblangan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Statistik hisobot shakllari ma'lumotlari bo'yicha ma'lumotlar ma'muriy manbalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Sanoat ishlab chiqarishining yillik hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar yillik statistika dasturida belgilangan muddatlarda yangilanadi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Sanoat ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar yillik statistika dasturida belgilangan muddatlarda yangilangan yillik hisobotlar asosida qayta ko'rib chiqiladi. Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni e'lon qilishda tegishli yozuv (havola) kiritiladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Sanoat ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ilgari e'lon qilingan ma'lumotlarga aniqlik kiritilgan taqdirda, keyingi nashrlarda yangilangan ma'lumotlar taqdim yetiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining nashrlari e'lon qilinadi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlar foydalanuvchilarga elektron shaklda "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati", "O'zbekiston Respublikasining statistik sharhi", "O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari" nashrlari, oylik Press-revizlar orqali taqdim etiladi, foydalanuvchilarning iltimosiga binoan, va boshqalar.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Mavjud emas.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

“Sanoat ishlab chiqarishi” statistik byulleteni.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Maxsus foydalanuvchi so'rovlari uchun jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Oylik statistik byulleten “Sanoat ishlab chiqarishi”. Har oy elektron shaklda press-reviz.

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Oylik ma'lumotlar 10 ish kunida, yillik ma'lumotlar hisobot davridan keyin 6 oydan kechiktirmay taqdim etiladi.

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Oylik, choraklik va yillik ma'lumotlar elektron jadval ko'rinishida davlat organlari va boshqa foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra taqdim etiladi.

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Muayyan tafsilotlar so'rov bo'yicha mavjud bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonuni, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida”gi nizom, Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risidagi nizom va boshqa me'yoriy hujjatlarga asosan, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga ularning so'roviga ko'ra belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning yozma so'roviga ko'ra, bosma yoki elektron jadvallar, statistik byulletenlar, ekspress ma'lumotlar ko'rinishida, shuningdek tomonlarning axborot almashinuvi to'g'risidagi shartnomalariga muvofiq taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Davlat statistika qo'mitasining veb-saytida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo'yicha uslubiy qoidalar mavjud.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

Foydalanuvchilarda savollar bo'lsa, sanoat statistikasi boshqarmasi xodimlari bilan tegishli ko'rsatkichlarni aniqlashtirish uchun zarur ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining veb-saytida mavjud.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Statistika kuzatuvlari vositalarini (shakl va anketalarni) takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Statistika kuzatuvlari vositalarini takomillashtirish.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Yillik statistika dasturi doirasida taqdim etiladigan moliyalashtirish

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

Yillik statistika dasturi doirasida taqdim etiladigan moliyalashtirish

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.Sh.:	Jo'rayev Sardor Botirovich
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Sanoat statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998-71-202-80-46
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	s.juraev@stat.uz